

# Navoiy viloyat statistika boshqarmasi

## 2019 yilning yanvar-may oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

### RAQAMLAR

16123,5 mlrd.so'm

sanoat ishlab chiqarish hajmi

101,1 %

sanoat ishlab chiqarish indeksi

1159,9 mlrd.so'm

iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

102,6 %

o'sish sur'a'ti

7,2 %

iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

11,7 %

sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-may oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 16123,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 106,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoati - 99,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 100,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 109,8 % ga o'sish hisoblanadi.

### 2019 yilning yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Ishlab chiqaradigan sanoat jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 82,5 %

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 6,4 %

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishslash jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 10,9 %

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 0,2 %

## **Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishslash.**

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1749,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,9 % ni tashkil etdi.




### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishslash sanoati).**

2019 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13305,9 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,5 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'inining ulushi - 0,4 % ni, o'rta-yuqoritexnologiyali - 5,4 %, o'rta-quyi texnologiyali - 70,0 % va quyi texnologiyali - 6,7 % tashkil etdi.

### **Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,6 %, metallurgiya sanoatining ulushi - 75,8 %, oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,7 %, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,6 %, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,2 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018 yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
-------------------------------------------------	-----------------------------------------	-------------------------------------------------	-------------------

**Portlandsement, ming tonna**

1509,0



1395,0

92,4

**So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak , tonna**

18127,4



18603,0

102,6

**Ammoniy nitrat, ming tonna**

91,85



105,18

114,5

**Temir beton, tonna**

19829,20



25580,39

77,5

***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni konditsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1038,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,4 % ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash,  
kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni  
utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
-------------------------------------------------	-----------------------------------------	-------------------------------------------------	-------------------

**Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom-ashyo, tonna**

23553,0



19226,0

81,6

**Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm**


5337,844



8080,148

151,4

**2019-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi 2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan %**




Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Karmana (2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan 128,3 %), Tomdi (114,5 %), Nurota (111,9 %), Konimex (104,8 %), Qiziltepa (103,4 %) tumanlarida va Navoiy shahrida (107,3 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1159,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 102,6 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 7,2 % ni tashkil etdi.

#### **2019-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar bo'yicha istemol mollarining o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan %**




Shu bilan birga, Karmana (2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan 113,0 %), Nurota (105,5 %), Tomdi (105,3 %), Navbahor (103,7 %), Konimex (103,2 %) va Uchquduq tumanlarida (103,2 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

**Yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab  
chiqarish hajmining tarkibi, % da**



**2019 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi**




### ***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi***

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 743,6 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.

### ***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.***

**2018 yil yanvar-may**




**2019 yil yanvar-may**



**Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar**

**Viloyatning boshqa korxonalari**

### ***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %***



### ***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi***

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1889,3 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 11,7 % ni tashkil etdi.

### ***Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi***



2019 yanvar-fevral  
9.1 %

2019 yanvar-mart  
9.9 %

2019 yanvar-aprel  
10.7 %

2019 yanvar-may  
11.7 %

## 2019 yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha yirik korhonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbaxor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nurota (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Uchquduq (99,6 %), Xatirchi (98,3 %), Qiziltepa tumanlarida (86,9 %) va Zarafshon shahrida (84,2 %) kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy shahrida (1,8 %), Konimex (25,9 %) va Karmana tumanida (45,7 %) kuzatildi.

### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini


Bugungi kunda viloyatimizda 2231 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'sratmoqda, shundan 634 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 28,4%) Navoiy shahriga, 358 tasi (16,0%) Karmana tumaniga, 284 tasi (12,7 %) Nurota tumaniga to'gri kelmoqda.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni, birlik  
(2019 yil 1 iyun holatiga)**



2019 yil yanvar-may oylarida viloyatimizda 533 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 18,4 foizi Xatirchi tumaniga to'g'ri keladi.

### Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019 yil yanvar-may )



**Navoiy viloyati statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi**  
Aloqa telefoni: (436) 223-33-29